BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Durdona Xudoyberdiyeva
Guliston davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi”
kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
e-mail: hudojberdievgijosiddin@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola bo‘lajak tarbiyachilarning tadqiqotchilik kompetentligini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirish xususida boradi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, bo‘lajak tarbiyachilar, fan va ta’lim, bo‘lajak tarbiyachining mahorati, kreativlik, kasbiy kompetentlik, kreativ kompetentlik, kompetensiya.

Annotation. This article is about preparing future teachers for professional activities and improving their creative abilities based on the competence approach.

Key words: preschool education, future educators, science and education, skills of the future educator, creativity, professional competence, creative competence, competence.

Jahon miqyosida pedagogik tajriba va ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida inson hayoti davomida egallaydigan barcha ma'lumotining 70%ini besh yoshgacha bo‘lgan davrda olib ulgurishi o‘z isbotini topgan. Darhaqiqat, bu davr mobaynida bola dunyoni idrok qilishni boshlaydi, fikrlaydi, atrof-olam bilan tanishadi, umri davomida oladigan bilimlarga zamin tayyorlaydi. Shuning uchun ham yurtimiz kelajagi hisoblangan yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda maktabgacha ta’lim tashkilotlari va tarbiyachilarining o‘rni beqiyosdir.

Zamonaviy jamiyat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sohasi uchun yangi vazifalarni qo‘yadi, faoliyatning sifatiga qaratilgan yosh avlodni maktabga tayyorlab berishning yangi

darajasini talab qiladigan davlat standartlari joriy etilmoqda. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy salohiyat darajasi va kompetentligini rivojlantirish, tarbiyachi va butun ta’lim tashkilot- lari raqobatbardoshligi tamoyilini joriy etish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan etib belgilanmoqda. Ta'kidlash joizki, zamonaviy tizimda maktabgacha ta’lim tizimi tarbiyachilarining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga qo‘yiladigan talablar ko‘tarilib, pedagog ijodiga katta e'tibor va bu ijodkorlikning pedagogik faoliyatida namoyon bo‘lishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim jarayonining asosiy qismi tarbiyachi va tarbiyachilarining bola bilan kundalik hamkorligi, unga xulq-atvor meyorlarini ko‘rsatish va turli bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatishdir va bu jarayonda yetakchi rol tarbiyachiga aloqadorligini ko‘ramiz.

Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri-maktabgacha ta’lim sohasiga qo‘yiladigan talablar orasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy va kreativ kompetentligini oshirish uchun ham so‘nggi yillarda qator chora-tadbirlar yo‘lga qo‘yilmoqda. Chunonchi, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan “2017-2021- yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora- 5 6 tadbirlari” to‘g‘risidagi qarorda ham “Ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun ta’lim sifatini oshirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish zarur [1]” deb alohida uqtirib o‘tilgan.

Hukumatimiz rahbari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha tubdan rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’limtarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shartsharoitlarni tubdan yaxshilash, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, shuningdek, eng ilg‘or pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida belgilab olingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha ta’lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy yetukligi bilan birga kreativ kompetentligi hamdir. Pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talab eng avvalo o‘z ustida izlanishlar olib borishidir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy yetukligi va kreativ potensialga egaligi ta’lim sifatini oshirish uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o‘z masuliyatini samarali anglashga, ta’lim-tarbiya 11-12 jarayoniga ijodiy yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o‘rtoqlarini o‘sishiga yordam beradi. Shuningdek, tarbiyachining kreativligi, hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan ijodiy yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi. Bu esa o‘z-o‘zidan shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak tarbiyachilarini tayyorlayotgan oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagoglardan ham o‘quv jarayoniga mazmunan va shaklan yangiliklar kiritishni, ta’lim jarayoniga kreativlikni olib kirishni taqozo etadi. Bu kabi islohotlar o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak tarbiyachilarining kreativlik kompetentligini shakllanishiga turtki bo‘ladi.

III renesans davrida maktabgacha ta’lim sohasining rivojlanishi va taraqqiy topishida yuqori malakali maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilariga bo‘lgan ehtiyoj va talab ortib bormoqda. Ayniqsa, mutaxassislik fanlarining fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo‘lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakasiga ega ijodkor tarbiyachilarini tayyorlash talab etilmoqda. Oliy ta’lim tizimida mazkur talablarga javob bera oladigan, sifatli ko‘nikmalarga ega bo‘lgan talaba shaxsini shakllantirish imkoniyati vujudga kelmoqda. Buning uchun oliy ta’lim tizimida bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarini tayyorlashga yo‘naltirilgan o‘qitish jarayonida zamonaviy yondashuvlar va

innovatsiyalarni keng qo‘llashga talab ortib boradi. Shuningdek, XXI asr axborotlar oqimi davrida ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalariga, shu jumladan, ta’lim-tarbiya sohasiga ham ko‘plab yangiliklar kirib kelmoqda.

Kreativlik so‘zi (inglizcha “create” yaratuvchanlik, ijodkorlik) so‘zidan olingan bo‘lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo‘lgan qobiliyati, ijodkorlik iste'dod darajasi, individning an’anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo‘lgan, prinsipial yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o‘zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil omili sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorining muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi. P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi:

- muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror va natijalarni shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlar.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga ahamiyat berish lozim: Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur: Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko‘zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo‘lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash, bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish, bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish va bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish, ijodiy ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi [3, 187].

Bugungi kunda dunyo miqyosida to‘rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Atrofga nazar tashlasak har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelish mumkin: virtual reallik, to‘rtburchak tarvuzlar, elektron xizmatlar, tuproqsiz hosil olish... bularning barchasi inson tafakkuri mahsulidir. Odatiy bo‘lib tuyulgan kitob, musiqa, samolyot va hattoki lampalar ham qachonlardir orzu va tasavvurda bo‘lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi natijasida yaratilgan. Shu boisdan, hozirgi zamon pedagogikasida “kompetentlik” tushunchasi bilan bir qatorda “kreativlik” tushunchasi ham tez tez qo‘llanilmoqda. Har bir maktabgacha ta’lim tarbiyachisining kompetentlilik darajasi, uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo‘yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi.

Oliy ta’lim muassasasi talabalari va o‘qituvchilari uchun kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvning joriy etilishi ta’lim mazmuniga, o‘qitish shakliga, usullariga, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullariga hamda ta’lim va tarbiya jarayonida talabalar va o‘qituvchilar orasidagi munosabatlarida yangiliklar va o‘zgarishlar kiritishni talab etadi. Shunga binoan, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni o‘qitishda ta’limni tashkil etishning mavjud shakllari bo‘lgan ma’ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarini mazmunan yangilash, qo‘shimchalar kiritilishi nazarda tutiladi. Ma’ruza darslarini ijodiy va erkin fikrlovchi muammoli ta’lim shaklida, seminar darslarni kreativ sifatlarni shakllantirishga va amaliy mashg‘ulotlarda kreativ kompetentlikni integrativ yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishligi kutilayotgan natijaga samarali erishishda maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017- yil 19-iyuldagi «Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 528- son Qarori.

2. Ikramov Shuxrat Erkinovich. Maktabgacha ta’limda – kreativlik tushunchasi. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, January 20, 2022, 28 b.

3. Исянова А.Р. Развитие креативного потенциала педагогического состава ВУЗа на основе профессионального содержания образования. Ташкент: Навруз 2014. 187 с.

4. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - T., 2015.

5. Solomennikova O.A. Maktabgacha ta’lim muassasasi o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi // Pedagogik ta’lim va fan. - 2007. - No 3. - B. 4-5.